



QASHQADARYO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-sentabr*



## QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI SONI

*2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Qashqadaryo viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3618,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **57,7** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1545,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,7 %**), qishloq aholisi soni **2073,0** ming kishi (**57,3 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni




### Tabiiy o'sish




### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

*2024- yil 1- oktabr holatiga*


#### Shahar



#### Qishloq




## Erkaklar



50,7%

1834,5 ming kishi

## Ayollar



49,3%


1783,8 ming kishi

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1- oktabr holatiga



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi sonining **34,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **10,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2023- yil (yakuniy ma'lumot)	2024- yil (dastlabki ma'lumot)	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>3538,8</b>	<b>3618,3</b>	<b>102,2</b>
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	293,8	299,4	101,9
Shahrisabz sh	146,4	149,3	102,0
G'uzor	220,9	225,8	102,2
Dehqonobod	158,6	161,9	102,1
Qamashi	291,5	298,1	102,3
Qarshi	270,5	277,6	102,6
Koson	310,1	317,4	102,4
Kitob	280,2	286,0	102,1
Mirishkor	128,8	131,6	102,2
Muborak	92,9	94,7	101,9
Nishon	165,6	169,6	102,4
Kasbi	211,7	216,5	102,3
Ko'kdala	187,2	192,9	103,0
Chiroqchi	266,0	272,8	102,6
Shahrisabz	233,7	237,9	101,8
Yakkabog'	280,9	286,8	102,1

## Tug‘ilganlar soni


**Ma'lumot uchun!** tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.



## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **74,8** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **52,5 %** ni, qiz bolalar **47,5 %** ni tashkil etadi.

2024- yil yanvar-sentabr



2024- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,7%**
- 2 nafar – **2,3%**

### Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

*1- oktabr holatiga, kishi*

	2023- yil (yakuniy ma'lumot)	2024- yil (dastlabki ma'lumot)	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>75095</b>	<b>74787</b>	<b>99,6</b>
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	5763	5449	94,6
Shahrisabz sh	2370	2537	107,0
G'uzor	4759	4955	104,1
Dehqonobod	3717	3570	96,0
Qamashi	6542	6747	103,1
Qarshi	5732	5717	99,7
Koson	6955	6758	97,2
Kitob	5430	5560	102,4
Mirishkor	2754	2563	93,1
Muborak	1722	1873	108,8
Nishon	3748	3655	97,5
Kasbi	4509	4578	101,5
Ko'kdala	4525	4732	104,6
Chiroqchi	6617	6196	93,6
Shahrisabz	4062	4045	99,6
Yakkabog'	5890	5852	99,4

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **74,8** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **27,8** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan plus **0,8** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **28,6** promille bo‘lgan).




### VAFOT ETGANLAR

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,0** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,9** promille).

### O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **51,2 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,5 %** i – o‘simtalardan, **10,4 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,7 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,9 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **20,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.




**QAYD ETILGAN NIHOHLAR**




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **17,9** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,2** promille bo'lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-sentabr oylarida **2,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-sentabr oylarida **1,0** promille bo'lgan).

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi**  
*2024- yil yanvar-sentabr*



2024- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **51,8 %** i farzandsiz, **24,6 %** i bitta farzand bilan va **23,6 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2024- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **8673** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **13749** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini **-5076** kishini tashkil etadi. 2023-yilning mos davrida **-5711** kishi bo'lgan.

### Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-sentabr, ( kishi)*




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **8673** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **3,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,6** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **2,6** promille bo'lgan).

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-sentabr, ( kishi)*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **13749** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,8** promille bo'lgan).



## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 75 221-15-84, 70-70*